

# Andijon viloyati statistika boshqarmasi



## 2019 yilning yanvar-fevral oylarida QURILISH ISHLARI

### Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi -  
**356,4 mlrd. so`m**

Yirik qurilish tashkilotlari  
ulushi – **3,2 %**

Kichik tashkilotlar va  
mikrofirmalar ulushi  
– **76,7 %**

Norasmiy sektor  
ulushi – **20,1 %**

Andijon viloyatida qurilish faoliyati investitsiya kiritilishining jozibador yo`nalishlaridan biri va iqtisodiyotning ahamiyatli tarmog`i hisoblanadi. Joriy yilning yanvar-fevral oylarida Andijon viloyatida jami **356,4** mlrd.so`m qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o`shish sur`ati o`tgan yilning mos davriga nisbatan **104,2 %**ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **11,5** mlrd.so`m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **3,2 %**ni, hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan **143,0 %**ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **76,7 %** i yoki **273,3** mlrd.so`m to`g`ri keldi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan **103,9 %**ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa **20,1 %** yoki **71,6** mlrd.so`m to`g`ri keldi hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan **101,0 %**ni tashkil etdi.



### Yirik qurilish tashkilotlari

- hajmi - 11,5 mlrd.so`m
- o`shish sur`ati - 143,0%
- ulushi - 3,2%



### Kichik korxonalar va mikrofirmalar


- hajmi - 273,3 mlrd.so`m
- o`shish sur`ati - 103,9%
- ulushi - 76,7%



### Norasmiy sektor

- hajmi - 71,6 mlrd.so`m
- o`shish sur`ati - 101,0%
- ulushi - 20,1%

## Iqtisodiy faoliyat bo`yicha qurilish ishlari, mlrd.so`m



Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo`ljallanmagan binolarni qurish bo`yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida **73,3** %ni tashkil etdi va o`tgan yilning mos davridagi ko`rsatkichga nisbatan **6,3** % punktga kamaydi.





Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda **8,0** %ni tashkil etib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan **3,1** % punktga ko`paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa **18,7** % to`g`ri keldi va o`tgan yilning mos davridagi ko`rsatkichga nisbatan **3,2** % punktga ko`paydi.




## Yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %da



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi **1,7 %**ni (o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,2 %** punktga ko'paydi) tashkil etdi.

Mos ravishda, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi **71,3 %**ni (o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkich bilan teng bo'ldi) va norasmiy sektorning ulushi **27,0 %**ni (**0,2 %** punktga kamayish) tashkil etdi.

## 2019 yilning yanvar-fevral oylarida faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi, umumiy hajmga nisbatan **5,1 %**ni tashkil etdi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **91,0 %** (2,1 % punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi **3,9 %**ni (3,0% punktga kamayish) tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **1,7 %** punktga ko'paydi va **8,6 %**ni tashkil etdi. Qolgan **91,4 %**i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **1,7 %** punktga kamaydi.


## Xududlar kesimida qurilish ishlari hajmi (2019 yil yanvar-fevral oylarida)

	Jami, mlrd.so`m	O`sinh sur`ati, %da	shu jumladan, mulkchilik shakllari bo`yicha	
			Davlat, %da	Nodavlat, %da
Viloyat bo`yicha:	356,4	104,2	4,2	95,8
¼ Andijon shahar	155,0	104,0	1,8	98,2
¼ Xonabod shahar	6,6	103,1	0,0	100,0
¼ Andijon tuman	33,4	103,3	3,6	96,4
¼ Asaka tuman	12,2	102,4	4,9	95,1
¼ Baliqchi tuman	8,5	103,2	7,0	93,0
¼ Bo`z tuman	13,5	103,6	4,4	95,6
¼ Buloqboshi tuman	3,9	103,1	15,4	84,6
¼ Jalalquduq tuman	6,2	102,4	26,4	73,6
¼ Izboskan tuman	17,0	103,1	3,5	96,5
¼ Ulug`nor tuman	5,4	152,8	49,6	50,4
¼ Marxamat tuman	15,6	102,2	3,9	96,1
¼ Oltinko`l tuman	19,6	102,7	3,1	96,9
¼ Paxtaobod tuman	11,0	102,9	5,5	94,5
¼ Xo`jaobod tuman	3,9	102,3	15,4	84,6
¼ Shaxrixon tuman	37,6	105,6	1,6	98,4
¼ Qo`rg`ontepa tuman	7,0	101,9	8,5	91,5










Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi 4 R ¶ U J ¶ R Q W H S D (hududdagi qurilish hajmining 1,7 %ini tashkil qilib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga W R ¶ J ¶) U L N H O G L



## Hududlarda qurilish ishlarining o`lish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o`lish sur'ati Andijon shahrida **ANDIJONMAHSUSPUDRAT<sup>a</sup>** davlat unitar korxonasi (111,5 %) kuzatildi. Bu korxonadan Ulug'qor, Andijon, Baliqchi, Oltinko'l va Pahtaobod tumanlarida lotok tizimlarini taqirirlash, rekonstruktsiya qilish va mustaxkamlash ishlar olib borildi.

